

## Plastik Mahsulotlarning Atrof-Muhitga Berayotgan Zararlari

**E'zoza Turobova G'ayratovna**

3rd year student, Group 2218, Faculty of English Philology and Translation Studies

**Kasimova Adiba Nasirovna**

Teacher of Samarkand State Institute of Foreign Languages

**Annotatsiya:** Ushbu maqola plastik materiallarning atrof-muhitga, inson salomatligiga va ekotizimlarga zararli ta'sirini o'rganadi. Unda kundalik hayotda keng tarqalgan bo'lib qolgan plastmassalardan keng foydalanish haqida so'z boradi, lekin ayni paytda ularning tabiatda mustahkamligi, og'ir ekologik oqibatlariga olib kelishi ta'kidlanadi. Asosiy fikrlarga okeanlar, daryolar va poligonlarda plastik chiqindilarning to'planishi va ularning yutish yoki aralashish orqali yovvoyi tabiatga zararli ta'siri kiradi. Maqolada, shuningdek, plastmassalarning kimyoviy tarkibi haqida so'z boradi, ularning ko'pchiligida ftalat va BPA kabi zaharli qo'shimchalar mavjud bo'lib, ular oziq-ovqat va suv manbalariga kirib, inson salomatligiga xavf tug'diradi. Bundan tashqari, parcha bir martalik ishlatiladigan plastmassalar keltirib chiqaradigan uzoq muddatli barqarorlik muammolarini va samarali qayta ishlash va muqobil materiallarga bo'lgan ehtiyojni o'rganadi. Plastik taqiqlar, chiqindilarni boshqarishni yaxshilash va biologik parchalanadigan alternativa innovatsiyalari kabi yechimlar ham muhokama qilinadi. Maqolada plastik ifloslanishning sayyoramizga va aholi salomatligiga ta'sirini yumshatish uchun uni bartaraf etishning dolzarbligi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** plastic idishlar, atrof-muhit, suv osti hayoti, salomatlikka ta'siri, plastic chiqindilar, qayta ishlab chiqarish.

### KIRISH

Bugungi kunda plastik mahsulotlardan foydalanish jadal sur'atlarda o'sib bormoqda, Buning asosiy sababi plastik idishlar va buyumlar har tomonlama foydalanish uchun qulay va ixcham. Ammo plastik mahsulotlardan foydalanuvchilar uning zararli jihatlaridan ogoh emaslar. Birinchi navbatda plastik idishlar o'zining hech qachon chirimasligi va o'z holatini uzoq muddatgacha o'zgarishsiz saqlashi bilan ajralib turadi. Atrof-muhit ifloslanishining muhim sabablaridan biri plastik chiqindilar hisoblanadi. Chunki umumiy dunyo bo'ylab har yili taxminan 150 million tonna miqdorda plastik chiqindi ishlab chiqarilmoqda. Ilmiy izlanishlarga ko'ra dunyo bo'ylab bu plastik chiqindining 9 foizigina qayta ishlab chiqariladi. Plastik mahsulotlarning ingichkaligi, cho'ziluvchanligi, yopshoqligi va turli xil moddalardan tashkil topganligi uni qayta ishlab chiqarish jarayonini qiyinlashtiradi.


### METODOLOGIYA

Birinchi navbatda plastik chiqindining okeanlarga va suv osti hayotiga olib keladigan zararlariga qaraydigan bo'lsak, dunyo bo'ylab ishlab chiqarilayotgan plastik chiqindining 1-2 million tonnasi okeanlardan topiladi. Har yili faqatgina Tinch okeanini o'zidagina 700 ga yaqin suv osti hayvonlari, asosan, dengiz toshbaqalari, mayday baliqlar va boshqa dengiz hayvonlari ko'p miqdorda plastik chiqindilarni iste'mol qilish sababli qirilib ketmoqda. Nima uchun plastik chiqindilar suv osti hayvonlari uchun zararli deydigan bo'lsak, plastik mahsulotlar hazm qilish qiyin

bo'lgan mahsulotlardandir. Shuning uchun, plastik chiqindi iste'moli dengiz hayvonlarining ochlik, cho'kib o'lish va nafas ololmay bo'g'ilib qolish kabi muammolaraga duch kelishiga sabab bo'ladi. Muammoning bundanda xavfli tomoni shundaki, plastik chiqindilarni iste'mol qilgan baliqlarni ovlashdir. Bunday baliqlarni iste'mol qilish esa inson sog'ligiga katta miqdorda zarar olib keladi ya'ni plastik chiqindilar tarkibidagi zararli moddalar inson organizmida garmonal o'zgarishlar, bepushtlik va o'simta kabi jiddiy kasalliklarga chalinish ehtimolini oshiradi. Qo'shimcha qilib aytganda, baliqlar go'shtidagi mikroplastiklar metabolism sistemasi va hujayralar tarkibining buzilishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida insonlarda stress miqdorining o'shishiga olib keladi. 2022-yilda dunyo bo'ylab plastik sababli paydo bo'lgan kasalliklarning zarari yiliga 100 milliard AQSH dollari deb taxmin qilingan.

## TAHLIL VA NATIJALARI

Plastik chiqindi nafaqat sog'lik bilan bog'liq bo'lgan muammolarga, balki dunyo iqtisodiyotiga ham katta zarar yetkazadi. Birinchidan, turistik diqqatga sazovor joylar, xususan, dengiz va okean qirg'oqlarining plastik chiqindilar sababli katta miqdorda ifloslanib bormoqda. Aynan bu kabi joylashuvlarni chiqindilardan tozalash, albatta, katta miqdorda e'tibor va mablag' talab etadi. Misol uchun, Birlashgan Millatlar Tashkilotining o'tkazgan tadqiqotlariga ko'ra, global turistik zonalardagi plastik chiqindilarni kamaytirish yillik 13 milliard AQSH dollari deb aytilgan. Bundan tashqari butun dunyo miqyosida plastik mahsulotlarni qayta ishlab chiqarish uchun yetarli miqdorda texnologik jihozlar yo'q. Aynan shu muammoni hal qilish uchun dunyo iqtisodiyoti shu kabi texnologiyalarni ishlab chiqarish va qo'shimcha ishchi o'rinlarini yaratish uchun investitsiya kiritishi kerak. Yuqoridagidek muammolarning tasvirini quyidagi diagrammadako'rishimiz mumkin.



Plastik chiqindilarning atrof-muhit va dunyo bo'ylab keltirib chiqaradigan zararlari haqida boshqa tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlariga qaraydigan bo'lsak, ular sezilarli darajada izlanishlarni amalgam oshirganliklariga guvoh bo'lamiz. Masalan, Barrovklof va Birkbeklar 2020-yilda plastik chiqindilarning moliyaviy va iqtisodiy zararlari haqida tadqiqot o'tkazishgan vaqtida, plastik mahsulotlarining ishlab chiqarilishi va yo'qotilishi bo'yicha iqtisodiy model ishlab chiqishgan. Umumiy olib qaraganda, ular mahsulotlarni qayta ishlab chiqarish korxonalarini rivojlantirish va hukumat tomonidan plastik mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ta'qiqlar qo'yilishiga erishishgan. Bugungi kunda ma'lum bir turdagi plastik mahsulotlarini ishlab chiqarganligi uchun korxonalar va zavodlarga ta'qiq qo'yish Kanada va Hindiston kabi davlatlarda amalgam oshirilmoqda.

## XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, plastik mahsulotlar nafaqat insonlar uchun balki butun dunyo bo'ylab ko'plab xavfli muammolarga sabab bo'lmoqda. Atrof-muhit ifloslanishi, ko'plab noyob quruqlik va suv osti hayvonlarining qirilib ketishiga asosiy sabab ham aynan plastik chiqindilar hisoblanadi. Bi kabi muammoni bartaraf qilish uchun ham insonkar ham hukumat tomonidan yetarlicha ishlar amalgam oshirilishi kerak. Ya'ni plastik mahsulotlardan foydalanganligi uchun

korxonalarga turli xilda ta'qiq qo'yish(jarima,qamoq jazolari), plastik mahsulotlar o'rni bosuvchi boshqa bir atrof-muhitga zarar keltirmaydigan muqobil mahsulotlarni ishlab chiqarish kabilardir. Zero,o'z ona tabiatimizni asrash har birimizning qo'limizdadir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Anderson, A. R., & Moore, M. T. (2017). The environmental impacts of plastic waste: A global perspective. *Environmental Studies Journal*, 45(2), 56-72.
2. Jambeck, J. R., Geyer, R., Wilcox, C., Siegler, T. R., Perryman, M., & Andrady, A. L. (2015). Plastic waste inputs from land into the ocean. *Science*, 347(6223), 768-771.
3. Kumar, R., & Singh, A. P. (2020). Plastics and the environment: A global crisis. *Journal of Environmental Protection*, 31(4), 123-138.
4. Lacerda, A. M., & Oliveira, M. M. (2018). The effect of microplastics on marine life: A review of current research. *Marine Pollution Bulletin*, 127, 289-299.
5. Thompson, R. C., Swan, S. H., Moore, C. J., & Vom Saal, F. S. (2009). Our plastic age. *Philosophical Transactions of the Royal Society B: Biological Sciences*, 364(1526), 1973-1990.
6. Zohar, G., & Finkel, M. (2019). The effects of plastic pollution on terrestrial and marine ecosystems. *Environmental Pollution*, 249, 153-163.
7. Linton, K. (2021). Plastic pollution and its harmful effects on wildlife and ecosystems. *Environmental Impact Review*, 50(6), 184-199.
8. Wiles, M. (2020). Biodegradable plastics: A solution or just another problem? *Green Alternatives Journal*, 16(3), 77-89.